

## **"Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" yurt taraqqiyotining garovi**

Muxlisaxon Vohidjon qizi Tursunaliyeva  
Andijon davlat universiteti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada 2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi keltirilgan ma'ruza bo'yicha fikr-mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim tizimi, taraqqiyot, murojaatnama, "A-level".

## **"Year of attention to people and quality education" is a guaranty of the country's development**

Mukhlisakanhan Vahidjon kizi Tursunaliyeva  
Andijan State University

**Abstract:** This article contains comments on the report of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev's Address to the Oliy Majlis and the people of Uzbekistan on December 20, 2022.

**Keywords:** Education system, development, application, "A-level".

Bugungi jadal rivojlanib borayotgan tahlikali davrda davlatimiz o'zining to'g'ri iqtisodiy-siyosiy pozitsiyasi bilan ildamlab bormoqda. Yildan-yilga amalga oshirilayotgan to'g'ri islohatlar natijasida ijtimoiy hayotimiz har sohada rivojlanib bormoqda. 2023-yilga rejalarni to'g'ri olish uchun 2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida bat afsil bayon etilgan. Ushbu murojaatnomada xalqimizning fikrini har bir yo'nalish bo'yicha takliflari chuqur tahlil va muhokama qilinib xalqimizning ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiyot yo'nalishlar bo'yicha muammolar bo'yicha tizimli yechimlar rejaga kiritildi.

Ma'lumkin, xalqimiz davlatdan maktab, bog'cha va shifoxonalarni ko'paytirish, ta'lim va tibbiyot sifatini oshirishni, mahallada yo'l, suv, elektr, transport muammolarini hal qilishni, ish o'rinalarini ko'paytirish, tadbirkorlikka yangi imkoniyatlar yaratishni, adolatni ta'minlash, ovoragarchilik, byurokratiya va korrupsiyani yo'q qilishni kutmoqda. Ko'tarilgan masalalar aniq va o'rinnlidir.

Shu bois, kirib kelayotgan yangi, 2023-yilga yurtimizda “*Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili*”, deb nom berish muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan taklif qilindi va bir ovozdan ma’qullandi.

Shunday savol tug’ilishi mumkinki, nima uchun yilga bunday nom berildi?

O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta’minalashni ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu siyosat bir yil bilan cheklanib qolmasligi, doimo bardavom bo‘lishi barchamizga ayon.

Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog‘lig‘i joyida bo‘lishi, yaxshi ta’lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo‘lsa, hammasini yaratib berishga davlatimiz tomonidan harakat qilinmoqda.

*Ta’lim sifatini oshirish* - Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir. Shu o‘rinda bobomiz Yusuf Xos Hojib aytganlaridek: “*Zakovat bor joyda ulug‘lik bo‘ladi, Bilim bor joyda buyuklik bo‘ladi*” eslab o’tish joiz. Shuning uchun ushbu sohada boshlangan islohotlarni davom ettirish, ta’lim dargohlariga borib, o‘qituvchi va murabbiylar bilan ko‘proq muloqot qilib, o‘quv-tarbiya ishlari sifatini oshirish bo‘yicha ular qo‘ygan masalalarni hal etish lozim.

Rahbariyat tomonidan 2023-yil Davlat dasturiga xalqimiz ko‘targan barcha masalalarni aniq yechimlari kiritiladi. Ushbu jarayonlarda deputat va senatorlar, mahalla vakillari, ziyorilar, yoshlar, tadbirkorlar va keng jamoatchiligidan faol bo‘lishlarini, yangi-yangi taklif va tashabbuslar bildirishlarini so‘raladi.

Murojaatnomada muhtaram prezidentimizning Imom Moturidiy bobomizning: “*Elu yurt bilan hamdard bo‘lib yashagin, toki xalq hamisha sen bilan birga bo‘lgay*”, degan hayotiy hikmati eslab, ushbu so‘zlar har bir vazir, har qaysi rahbarning ongi, qalbi va harakatida muhrlanishi lozim deya takidlaganlari bejiz emas, zero har bir davlat hodimi, xalqimizning har bir fidokor insoni shu shior ostida yashasa yurtimiz tez suratlarda taraqqiyoti etadi.

2023-yil amalga oshiriladigan rejalarda ta’limga doir islohatlar mavjud, yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta’limni qo‘llab-quvvatlashga qaratish lozim. “*Najot - ta’limda, najot - tarbiyada, najot - bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi*”. Ma’rifatparvar jadid bobolarimizning bu so‘zлari deputat va senatorlarimiz, siyosiy partiyalar, mahalliy kengashlar, butun davlat apparati, keng jamoatchilikning amaliy harakatiga aylanishi kerak. Shu bois, maktablarda ta’lim sifati hamda jamiyatda o‘qituvchi kasbining nufuzini oshirish, muallimlarning sharoitlarini yaxshilash 2023 yildagi eng asosiy vazifalardan biri bo‘ladi. O‘qituvchilarning maqomini, ularning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishni Konstitutsiyada alohida belgilash zarur, deb bilamiz.

2023-yildan boshlang‘ich sinflarda mutlaqo yangi metodika asosida yaratilgan darsliklar bo‘yicha o‘qitish yo‘lga qo‘yiladi. Hozirgi vaqtida ular xalqaro ekspertizadan o‘tib, o‘zimizda sinovdan o‘tkazilmoqda. Lekin yuqori sinflarda-chi? Ochiq aytish

kerak, ularda berilayotgan ta’lim va tarbiya sifati, o‘qituvchilarining bilimi va mahoratini talab darajasida, deb bo‘lmaydi. Bolalarimiz mакtabdan ona tili va chet tillarini puxta o‘zlashtirib, kompyuterda ishlashni o‘rganib chiqishi zarur. Farzandlarimizni kasb-hunarlarga, san’at va madaniyatga qiziqtirish lozim.

O‘quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Mana shunday muhit mакtablarimizga kirib kelishi kerak!

Bu borada Prezident mакtablarida 130 ta mamlakatda ma’qullangan “A-level” ta’lim dasturi yo‘lga qo‘yilgani o‘z samarasini bermoqda. Bu jarayonda har bir o‘quvchi o‘zining qobiliyatiga qarab, aniq yo‘nalishlar bo‘yicha chuqur o‘qitiladi, dunyoning nufuzli oliygohlariga kirish imkoniyatlari kengayadi. Shu bois, 2023-yildan mакtab ta’limini xalqaro ta’lim dasturlari asosida butunlay isloh qilish boshlanadi.

Bu ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish, yangi darsliklarni ishlab chiqish, ilg‘or ta’lim standartlari va metodikalarini joriy etish uchun alohida ilmiy institut va laboratoriyalar tashkil qilinadi. Milliy o‘zligimiz timsoli, ma’naviyatimiz asosi bo‘lgan ona tilimizga e’tibor yanada kuchaytiriladi. Hozirgi ochiqlik siyosati, chet el investitsiyalari va yangi korxonalarning ortib borayotgani yoshlarimizni zamonaviy bilimlar va xorijiy tillarni o‘rganishga undamoqda. Shu bois, mакtablarga yuqori malakali xorijiy o‘qituvchilarini olib kelishga majbur bo‘linmoqda.

Bu ulkan ishlarni amalga oshirishda muhtaram prezidentimizning quyidagi gaplari bizni ruhlantiradi: “Albatta, dunyodagi hozirgi murakkab sharoitda bu vazifalarni amalga oshirish oson bo‘lmaydi. Lekin biz o‘tgan davrda katta bilim va tajriba to‘pladik. Eng muhimi, o‘z kuch va imkoniyatlarimizga bo‘lgan ishonchimiz tobora ortib bormoqda. *Shu bois, qanchalik qiyin bo‘lmisin, tanlagan yo‘limizdan hech qachon ortga qaytmaymiz. Ko‘zlagan marralarimizga albatta yetamiz. Bu yo‘lda niyati ulug‘, qalbi pok, mehnatkash xalqimizga tayanamiz. Bir tanu bir jon bo‘lib harakat qilsak, men ishonaman, el-yurtimiz intilayotgan Yangi O‘zbekistonni albatta barchamiz birgalikda buniyod etamiz.*”

Ta’limga e’tibor taraqqiyotga e’tibor hisoblanadi. Pedagog sifatida ushbu belgilangan rejalarini amalga oshishida jamoamiz bilan birgalikda beminnat xizmat qilamiz.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi <https://president.uz/oz/lists/view/5774>